

JAMIYATDA INSONNI KOMILLIKKA YEATKLASHDA ONA TILI VA ADABIYOTNING TUTGAN O'RNI

Zuhroxon Xolmurodova

Farg'ona viloyati, Beshariq tumani, 47-maktab

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatda insonni komillikka yeatklashda ona tili va adabiyotning tutgan o'rni masalasi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: jamiyat, komillik, til, adabiyot, anglash, bilish, so'zlash, aloqa-munosabat.

KIRISH

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha jabhalarida chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning poydevori hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning sira ilojisi yo'q. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyayev ta'kidlaganidek: **“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”**. Til insonlarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, yaratuvchining insonga bergan bebaho ne'matidir. Farzandlarimizni o'z ona tilida chiroyli talaffuz bilan so'zlashi har bir ta'ona uchun qanchalik zavqlidir. Bolalarga yoshlik davridan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatsak, u kelajakda o'zbek tilimizni dunyoga mashhur qiladigan darajada voyaga yetadi. Dunyoda har bir xalqning o'z ona tili uning bebaho boyligidir., 1989 yil 21 oktabr. Bu qutlug' kun O'zbekiston tarixiga, o'zbek millati yilnomasiga zarhal harflar bilan bitildi. “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilindi. Bu qonun avlodlarimiz asrlar bo'yi orzu qilgan, ammo orzulari sarobga aylanib qolgan davrlarda momaqaldiroqdek guldirab, chaqmoqdek chaqib, yuzaga keldi. O'zbek tiliga “Davlat tili maqomi” berilganligining 30 yilligini nishonlash arafasida 2019 yil 21 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni e'lon qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur farmonga muvofiq Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, shuningdek, hukumat qarori bilan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, muassasa va boshqa tashkilotlarda qonun hujjatlariga rioya etilishi, o'zbek tilini rivojlantirishni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning «**Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin**» degan so'zlaridan shuni anglab yetishimiz kerakki, til har bir millat madaniyatining o'zagi, u xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydigan, birlashtiradigan, tarbiyalaydigan, o'qitadigan, urf-odat, ananalarini saqlaydigan asosiy vosita ekanligini har birimiz chuqur anglab, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak.

Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilish, so'zlash, aloqa-munosabat vositasi bo'lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan biri bo'lib kelgan. Jumladan, o'zbek tili o'zbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, o'z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan ma'naviy yutug'idir. Bugungi kunga qadar shonli va sharafli yo'llarni bosib, keskin va shiddatli to'fonlarni yengib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulug'vor va ustuvorligini namoyon qilib kelmoqda. Shu o'rinda Baquvvat tanasi esa o'zbek tilining ravnaqida beqiyos o'rin tutgan ajdodlarimizdir, ya'ni Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat, Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi buyuk ijodkorlardir. Ularning yaratgan o'lmas asarlari asrlar davomida xalqimiz ma'naviy me'rosini xazinasini sifatida qadrlanib, ajdodlarimiz, kelajak avlodlarimizni ma'naviy hayotida juda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Dunyo olimlarining hisob-kitoblariga ko'ra dunyoda ikki yarim mingtadan besh mingtagacha, ayrim manbalarga ko'ra esa besh mingtadan etti mingtagacha tillar borligi ma'lum. Bugungi kunda yurtimizda o'zbek tilini rivojlantirish, ona tilini o'qitishga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda. Shu bois, ona tili va adabiyot fanining komil inson tarbiyasidagi ahamiyati va ona tili va adabiyot darslarida tashkil etilishi mumkin bo'lgan turli qiziqarli o'yinlarga bag'ishlangan.

Hozirgi kompyuter texnologiyasi, internet olami shiddat

bilan rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilar ongiga ma'naviy boyligimizni singdirish har bir pedagog oldiga o'z ustida muntazam ishlashni, internet tizimidan samarali foydalanishni bilishni talab etadi. Shuning uchun bugungi kun o'quvchisiga dars berishda o'qituvchiga o'quv jarayonida odatdagi dars usullaridan tashqari yangi texnologiya asosida noan'anaviy darslarni tashkil qilish ma'suliyati yuklanadi.

Ta'lim rivojining buguni va istiqboli bugun sinfda dars berayotgan o'qituvchiga ko'p jihatdan bog'liq. Zero, o'qituvchi maktabda asosiy figura hisoblanar ekan, u o'ziga bildirilgan ishonch, yosh avlod tarbiyasidek murakkab, mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarmog'i zarur.

O'qish sifatini yanada oshirish davr talabi bo'lib qolgan shu kunlarda darslarni noan'anaviy usulda olib borish keng yo'lga qo'yilgan. Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo'lga qo'yish masalasi, eng avvalo, ona tili ta'limiga taalluqlidir.

XULOSA

O'zbek xalqi yoshlarini har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash, yangi zamon kishisini shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Sir emaski, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash va yuksak fazilatli insonni voyaga yetkazish juda murakkab va mashaqqatli ishdir. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda quyidagi o'qitish uslublaridan foydalanishni tavsiya qilaman.

1. *Imperativ*(avtoritar) uslub qattiq deyiladi, chunki u so'zsiz, qat'iy itoatkorlikni talab qiladi. Bolaga passiv pozitsiya beriladi va o'qituvchi intizomni eng muhim narsa deb hisoblab, sinfni manipulyatsiya qilishga intiladi. U bolalarni kategoriyali shaklda o'z hokimiyatiga bo'ysundiradi, me'yoriy xatti-harakatlar zarurligini tushuntirmaydi, ularning xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rgatmaydi va psixologik bosim o'tkazadi.

2. *Demokratik uslub* bolani faol pozitsiya bilan ta'minlaydi: o'qituvchi o'quvchilarni ta'lim muammolarini hal qilishda hamkorlik munosabatlariga qo'yishga intiladi. Shu bilan birga, intizomli xatti-harakatlar o'z-o'zidan maqsad emas, balki muvaffaqiyatli ishni ta'minlash vositasi sifatida ishlaydi.

3. *Liberal-ruxsat beruvchi (anti-avtoritar) uslub* kamsituvchi darajada zaif, bolaga zarar etkazishga imkon beradi. Bu oddiy odamning uslubi. Kasbiy mahoratning yetishmasligi o'qituvchining darsda tartib-intizomni ta'minlashga, o'quv jarayonini malakali tashkil etishga to'sqinlik qiladi. Ushbu uslub bolalarning birgalikdagi faoliyatini ham ta'minlamaydi - oddiy xulq-atvor shunchaki tartibga solinmagan, bolalar o'zlarini

eng yaxshi tarbiya bilan tutadilar, hatto intizomlilarni ham o'zlari bilan birga tortadilar.

4. Tajribali o'qituvchi bolaga: "O'rningdan tur! Siz noto'g'ri ish qilyapsiz!" U boshqacha aytadi: "Sinfning ishlashiga kim to'sqinlik qiladi? Bizni jim turish huquqidan kim mahrum qiladi? Bunda bolaning xulq-atvori birinchi navbatda uning boshqalarga munosabati nuqtai nazaridan baholanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 1997-yi, 29- avgust.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 1997-yi, 29-avgust.
3. Y. G'ulomov "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent-1998-yil.
4. Andreeva G.N. Ijtimoiy psixologiya. - M., 1996 yil.
5. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. - Rostov-na-Donu, 1997 yil.
6. Kan-Kalik V.A. Pedagogik muloqot haqida o'qituvchi. - M, 1987 yil.

